

**TALABA-YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHNING MAZMUN MOHIYATI****Salimov Javohir Abdumo‘min o‘g‘li***Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
magistri*

“Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namayon bo‘ladi”

SH.Mirziyoyev

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun-mohiyati yoritilgan. Unda yoshlarning Vatanga sadoqatli, mustaqillik va tinchlikni asrashga mas‘uliyatli bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy, huquqiy va harbiy bilimlarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston yoshlar siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifalari hamda ta‘lim muassasalari va jamoatchilikning bu boradagi hamkorlik faoliyati ochib berilgan. Maqolada yosh avlod qalbida yurtga muhabbat, fidoyilik, jasorat va mas‘uliyat tuyg‘ularini kuchaytirish orqali ularni kelajakda Vatan himoyachilari sifatida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Talaba-yoshlar, harbiy vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, fidoyilik, jasorat, mas‘uliyat, Vatanga muhabbat, tarbiya, ta‘lim, Sh. Mirziyoyev, Konstitutsiyaviy burch.*

Kirish.

Vatan deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta‘lim tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mexnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz va muqaddasdir. Vatan insonga baxt iqbol beradigan zamindir. A.Avloniy aytganidek: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur”. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar. Biz Turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimoslar Shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni va boshqa yerlarni ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi Turonlik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi”. Vatan –bu xalqning o‘tmishi, buguni va

kelajagidir. Vatan-muqaddas qadriyat. Taraqqiyot Vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma‘naviy kamolot va fuqorolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir. Vatan tuyg‘usi bo‘lgan kishidagina vatanparvarlik jo‘sh uradi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I A Karimov aytganidek: “Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya‘ni, inson o‘zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”. Vatan tuyg‘usini o‘zida mujassam etgan kishigina jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashadi. Shunday ekan, O‘zbekistonda yashovchi har bir yosh avlod kelajagi buyuk bo‘lgan davlatimizni dunyoga tanishtirishda yagona maqsad sari birlashishi kerak. Shu sababli ham maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji hamda oliy ta‘lim muassasalari o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur o‘quv muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zlarining munosib o‘rinlarini topishlari, jamiyat va Vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko‘rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish nihoyatda zarur hisoblanadi.

Ona-yerimiz, Vatanga bo‘lgan muhabbat, olijanob tuyg‘ular xalqimiz qon qoniga singib ketgan milliy karakterining azaliy fazilatlaridandir. Bu qadrli insoniy fazilatlarini asrab-avaylash va takomillashtirish, yoshlarni mustaqil O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari qilib tarbiyalashimizning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib qolishi kerak. Ko‘p asrlik tariximiz davomida yuzaga kelgan, eng yaxshi jangovar va mexnat an‘analarimiz o‘zining boy ma‘naviy kuchini yo‘qotgani yo‘q. Uning chuqur manbalarga ega ma‘naviy imkoniyatlari juda ham yuqoridir, hamda hozirgacha qadirlanib kelinmoqda.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat sharoitida yosh avlod, ayniqsa, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yurtimizda mustaqillik yillarida shakllangan milliy armiyamiz, harbiy xizmat tizimi va yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash yo‘nalishidagi tizimli islohotlar ushbu masalani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi.

Harbiy vatanparvarlik tushunchasi, avvalo, yurtga sadoqat, uning erkinligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga bo‘lgan ruhiy, ma‘naviy va jismoniy tayyorgarlik sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha tarkibida Vatanga muhabbat, armiyaga hurmat, sadoqat, fidoyilik, intizom, jasorat kabi ko‘plab ijtimoiy-axloqiy fazilatlar mujassamdir.

Talaba yoshlarda harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirish deganda ularning fuqorolik ongini yuksaltirish, milliy armiyaga nisbatan ijobiy munosabatini qaror toptirish, shuningdek, harbiy xizmatga bo‘lgan tayyorgarlikni ruhiy va jismoniy jihatdan ta‘minlash nazarda tutiladi.

Bu jarayonning asosiy maqsadi – yoshlarni o‘z ona yurtini sevuvchi, uni asrab-avaylovchi va zarur bo‘lsa, uni himoya qilishga tayyor bo‘lgan ongli fuqaro sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Mamlakatimizda bu yo‘nalishda bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi”, “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, “Ma‘naviyat va ma‘rifat” tizimi orqali kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalarida esa bu yo‘nalish “Harbiy xizmat asoslari”, “Vatanparvarlik saboqlari”, “Ma‘naviy-ma‘rifiy soatlar” kabi shakllar orqali o‘quv jarayoniga integratsiyalashmoqda.

Shuningdek, Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni bir necha tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

– Ma‘naviy-axloqiy tarbiya, ya‘ni talaba yoshlarda sadoqat, fidoyilik, sabr-toqat, halollik, mas‘uliyat kabi sifatlarini shakllantirish.

– Fuqarolik pozitsiyasi, ya‘ni Konstitutsiyaviy burchni anglash, ijtimoiy faollik, qonunlarga hurmat.

– Jismoniy-ruhiy tayyorgarlik, ya‘ni sport, harbiy-sport musobaqalari, saf harakatlari orqali birdamlikni kuchaytirish.

– Axborot-madaniy immunitet, ya‘ni g‘oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy qarshilikni shakllantirishdan iboratdir.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, talaba-yoshlarning tafakkurini zamonaviy mafkuraviy xavflardan himoya qilish, ularning ongiga milliy g‘urur, o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini singdirish harbiy vatanparvarlik ruhini shakllantirishning eng muhim mazmuniy yo‘nalishlaridan biridir. Bu esa zamonaviy, innovatsion, texnologik va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiya yondashuvlarini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Barchamizga yaxshi ma‘lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo‘lgan zararli ta‘sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas‘uliyat tuyg‘usini mustahkamlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ko‘rishimiz shart¹²², -deb ta‘kidlagan edi.

Shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, bugungi kunda talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini rivojlantirish, Vatanga bo‘lgan muhabbat va uning ertangi kuniga ishonch ruhida tarbiyalash – davlat ahamiyatiga molik vazifa bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarish nafaqat oliy ta‘lim muassasalari professor o‘qituvchilarining balki, barcha jamiyat a‘zolarining fuqarolik

¹²² 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigidan

burchi hisoblanadi. Bugungi kunda harbiy vatanparvarlik, ma’naviyat, milliy mafkura, uning bosh va asosiy g‘oyalarini talaba-yoshlarning ongi va qalbiga singdirish, targ‘ib etish dolzarb muammo bo‘lib, bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Vatan ravnaqi va mustaqilligi hamma narsadan ustun turishini anglab yetish.
- Yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli etib tarbiyalash.
- Ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy targ‘ibot yo‘nalishidagi faoliyatni yanada kengaytirish.
- Yoshlar ongida mustaqillik tafakkurini shakllantirish, fuqarolik munosabatini tarkib toptirishdan iborat.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularda quyidagi shaxsiy sifatlar namoyon bo‘ladi:

- o‘z Vatani, ona yurtiga bo‘lgan mehr-muhabbat, sadoqat.
- xalq va millat o‘tmishi, urf-odatlarini, an’analarini va qadriyatlariga sodiqlik.
- Vatani va millat tarixidan g‘ururlanish, uning sha’ni, or-nomusini himoya qilish.
- yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarini asrab-avaylash, ularni ko‘paytirishda g‘amxo‘rlik qilish.
- Vatan ravnaqi va taraqqiyoti yo‘lida fidoiylilik bilan mehnat qilish.
- Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonch tuyg‘usini tuyish kabilar.

Ma’lumki, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ajdodlarning uzoq asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma’rifiy kamolotida muhim o‘rin egallab kelgan.

Harbiy vatanparvarlik hissining talaba yoshlar taraqqiyotidagi ahamiyati shundaki, u doimo o‘zining hayotiyliigi, ta’sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlash, uning sarhadlarini himoya qilish, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissi nafaqat axloqiy bilimlarni hosil qilishni ko‘zda tutadi, balki ushbu me’yorlar ularning qarashlari va e’tiqodlariga aylanib, odatdagi xulq-atvor shakllarini belgilab beradi. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirish maqsadi – ularda yuksak axloqli fazilatlarni tarkib toptirishdan iborat. Shuningdek, Harbiy vatanparvarlik hissi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talaba-yoshlarda jamiyat bilan aloqadorlik hissi, unga bog‘liqlik, o‘z xulq atvorini jamiyatning manfaatlarini bilan moslashtirish zaruriyatini shakllantirish.
- talaba yoshlarni jamiyatning axloqiy ideallari, talablari bilan tanishtirish, uning to‘g‘riligi va oqilonaligini isbotlash.
- talaba yoshlardagi vatanparvarlik hissi haqidagi bilimlarni axloqiy e’tiqodlarga aylantirish va e’tiqodlar tizimini shakllantirish.
- barqaror mehnatsevar his-tuyg‘ulari, yuksak xulq-atvor madaniyati va jamiyat a’zolariga hurmatni shakllantirish.

- targ‘ibot, ishontirish, shaxsiy namuna, mashq qildirish, rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini tanqid qilishga oid fazilarni boyitish.

- talaba-yoshlarda yuksak axloqiy odatlarni tarkib toptirish kabilar.

Oliy ta‘lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda, maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim tarbiya jarayoni muhim o‘rin tutadi. Talaba yoshlar faoliyatining asosiy turi o‘qish bo‘lib, unda harbiy vatanparvarlik hissining rivojlanishi ushbu faoliyat turining to‘g‘ri tashkil etilishi va maqsadga muvofiq yo‘naltirilishiga bog‘liq. Talaba-yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda harbiy amaliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar muhim o‘rin tutadi. Bunday sport va musobaqa turlariga quyidagilar kiradi: o‘q otish, turnikka tortilish, harbiylashtirilgan kross, to‘siqlardan o‘tish, suv to‘sig‘idan o‘tish, uzoq va yaqin masofaga granata otish, og‘ir tosh ko‘tarish va boshqalar.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta‘lim muassasalarida odatda, o‘q otish, harbiy texnik, harbiy tarixiy, topografik, umumharbiy tayyorgarlik bo‘yicha to‘garak tashkil qilinadi. Harbiy o‘yinlar, talabalar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shakllaridan biri hisoblanadi. Yaxshi tashkil qilingan o‘yin jarayonida ular niqoblanish uslublari, signalizatsiya, aloqa vositalari, maxsus harbiy atamalar bilan tanishadilar, masofalarni aniqlaydilar, azimut bo‘yicha yuradilar, grafik hujjatlar tuzadilar, kompasdan foydalanishga o‘rganadilar, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Shuningdek, Oliy ta‘lim muassasalarida darsdan tashqari vaqtlarda talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish mumkin:

- Buyuk Amir Temur, Bobur Mirzo, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro va boshqa sarkardalar jangovar merosi yutuqlari haqidagi ma‘ruza, suhbatlar tayyorlash va o‘tkazish.

- Urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etish.

- O‘zbekistonlik jangchilar, jangovar va siyosiy tayyorgarlik a‘lochilari bilan uchrashuvlar o‘tkazish.

- E‘tiborga sazovor sanalarga bag‘ishlangan kechalar uyushtirish.

- Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi mavzusi bo‘yicha anjumanlar o‘tkazish.

- Harbiy qism va oliy harbiy ta‘lim muassasalariga ekskursiyalar uyushtirish.

- Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi mavzusiga oid kinofilm, teleko‘rsatuvlar ko‘rish va ularni jamoada muhokama qilish.

- Harbiy vatanparvarlikka oid kitoblarni jamoada muhokama qilish, yozuvchilar, olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish.

- Tarixiy muzeylar, memorial komplekslarga borish, urushda halok bo‘lgan jangchilar qabrini ziyorat qilish.

- Xalq jangovar va mehnat shon-shuhrati joylariga safarlar uyushtirish.

- Turli harbiy sport musobaqalari va o‘yinlarda ishtirok etish.

- Harbiy texnik to‘garaklar ishida qatnashish.

- Harbiy vatanparvarlik mavzusiga bag‘ishlangan eng yaxshi insho, hikoya, rasmlar ko‘rgazmasi, ko‘riklarini tashkil qilish.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasining har-bir shakli va metodlarining mazmundorligi, tarbiyaviy maqsadi va ahamiyatiga e‘tibor qaratish lozim.

Shuni ta‘kidlashimiz joizki, yurtimiz mustaqilligidan keyingi yillarda yosh avlodni vatanparvar, milliy g‘ururli, ma‘naviyati yuksak insonlar etib tarbiyalash yanada dolzarb muammo kasb etmoqda. Chunki, milliy mustaqilligimizni aynan vatanparvar, har tomonlama barkamol yoshlar mustahkamlaydi, rivojlantiradi, uni dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi. Bunday yosh avlodni shakllantirish borasida yurtimizda bugungi kunga qadar tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ham birinchi e‘tibori yoshlarga qaratilgan. Yoshlarga jumladan talaba yoshlarga jahon standartlari darajasidagi sharoitlarni yaratish, ta‘lim-tarbiya berish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yurtimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmunini tashkil etmoqda.

Milliy mustaqillik, xalqimizda ayniqsa o‘rib kelayotgan yosh barkamol avlodimizni vatanparvarlik tuyg‘ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ma‘rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo‘lida qurbon bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi. Shuningdek ko‘plab olimlar bu borada fikrlar bayon qilganliklarini ko‘rishimiz mumkin, misol uchun: Ingliz shoiri Jorj Gordon Bayronning "Kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi" degan so‘zlari inson hayotida vatanparvarlik tuyg‘usining nechog‘li muhimligini ta‘kidlaydi. Bayron bu fikr orqali shuni anglatadi, agar inson o‘z ona yurtiga — uni dunyoga keltirgan, ulg‘aytirgan, himoya qilgan tuprog‘iga — mehr va sadoqat bilan qaray olmasa, u hech qanday boshqa yuksak tuyg‘uni — muhabbatni, do‘stlikni, fidoyilikni ham chin qalbdan his qila olmaydi.

Vatanga bo‘lgan sevgi — bu har qanday insoniy fazilatlarining, chinakam mehr va sadoqatning asosidir. Zero, o‘z yurtini qadrlamagan inson boshqalarni ham hurmat qilishda, ularning qadriyatlarini e‘zozlashda samimiy bo‘lolmaydi.

Bayronning ushbu gapi har bir insonning qalbida avvalo vatan sevgisi yuksak bo‘lishi kerakligini, bu tuyg‘u boshqa barcha ijobiy fazilatlarining ildizi ekanini ta‘riflaydi.

Bundan tashqari, Rus tanqidchisi Belinskiyning "Kimki o‘z Vatanga dahldor bo‘lmasa, u insoniyatga ham dahldor emas" degan so‘zi — vatanparvarlik va insoniylik o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni ifodalaydi. Belinskiy bu yerda shuni ta‘kidlaydi: agar inson o‘z tug‘ilgan yurti, uning taqdiri va kelajagiga befarq bo‘lsa, u butun insoniyat taqdiriga ham befarq bo‘ladi. Chunki inson avvalo o‘z Vatandan boshlanadi, o‘z yurtini sevib, uning

ravnaqi uchun kurashgandagina, u kengroq ma'noda butun insoniyatni sevishga va unga xizmat qilishga qodir bo'ladi.

Fransuz adibi Gyugoning "O'z Vatanga dog' tushurish — uni sotish degan so'z" degan fikri esa, vatanga xiyonat qilishning qanchalik og'ir va kechirilmas gunoh ekanligini ochib beradi. Gyugo nazarida, kimki o'z Vatani badnom qilsa, uni haqorat qilsa yoki unga zarar yetkazsa, bu — faqat so'z yoki fikr emas, bu — o'sha Vatanni dushmanga topshirish, ya'ni sotish bilan barobar bir xiyonatdir.

Bu ikkala fikr bir-birini to'ldiradi:

- Belinskiy — vatanga befarqlik insoniylikdan mahrumlik ekanini,
- Gyugo esa — vatan sha'nini himoya qilish har bir fuqaroning eng muqaddas burchi ekanini ta'kidlaydi.

Shu sababli, har qanday haqiqiy inson — avvalo o'z yurti uchun qayg'uradigan, uni asraydigan va uning sharafini baland tutadigan shaxs bo'lishi kerak.

Shuningdek, harbiy vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish uni fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir. Vatanparvarlik bir so'z bilan aytganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch -qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish, ona yurtimizda tinchlik, barqarorlikni va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir.

Shuningdek ta'rbiya hamda ta'lim bir biriga mos tushunchalardir, ular doim bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, "Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi"¹²³ deb bejjiz aytib o'tmagan. Jamiyatda vatanparvar va fidoyi insonlar ko'payishi natijasida ma'naviy-ma'rifiy hayotda hamda boshqa jabhalarda tub ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi.

Agar yoshlar faqat bilim olsa-yu, odob, axloq, ma'naviyat bilan tarbiyalanmasa, u to'liq yetuk shaxs bo'lib yetishmaydi. Aksincha, tarbiya va ta'lim uyg'un bo'lsa, natijada bilimdon, zukko, vatanparvar, ma'naviy boy, sog'lom va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan yoshlar yetishib chiqadi.

Demak, ta'lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida ko'rilsa, jamiyatda chinakam rivojlangan, ongli va fidoyi fuqarolar shakllanadi.

¹²³ SH.M. Mirziyoyev 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da shunday fikr ta'kidlangan.

Xulosa: Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – mamlakat kelajagi va xavfsizligini ta’minlashda muhim omildir. Zero, vatanparvarlik tuyg‘usi inson qalbida mustahkam ishonch, sadoqat va fidoyilikni shakllantiradi. Bu tarbiya jarayonida yoshlar nafaqat bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, balki ularda yurtga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, erkin va farovon hayotni asrab-avaylash mas’uliyati ham kuchayadi. Ta’lim muassasalari, oilalar va jamoatchilikning hamkorligi orqali yoshlarni Vatan himoyasiga doimo tayyor, ongli, jasur va irodali shaxslar qilib tarbiyalash mumkin. Shu bois, harbiy vatanparvarlik ruhidagi tarbiya nafaqat hozirgi davr ehtiyoji, balki mustaqil davlatimiz taraqqiyotining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) SH.M. Mirziyoyev 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi"
- 2) **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- 3) Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston – yoshlarga oid davlat siyosatini izchil davom ettirish yo‘lida.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 14-yanvardagi **“Vatan himoyachilari kuni”** munosabati bilan qilgan nutqi.
- 5) Axmedov M. *Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
- 6) Xudoyberdiyev A. *Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish metodlari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
- 7) Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalash konsepsiyasi
- 8) Xasanov Muzaffar Sodiqovichning “Yoshlarda harbiy vatanparvarlik xissini shakllantirishda tarbiyaning o‘rni” to‘g‘risidagi ilmiy maqola International Scientific Journal Volume 1 Issue 6 ilmiy maqolasi
- 9) Kalkanov E.T. “Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi